



NUTQ MADANIYATI VA MULOQOT ODOBIGA OID QARASHLARNING ISLOMIY TALQINLARI

Bekmuratova Gulzoda Sagindikovna

2-kurs magistratura talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sharqda nutq madaniyati haqidagi izlanish va yutuqlari, jumladan nutq madaniyati va muloqot odobiga oid. qarashlarning islomiy talqinlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Qur'on, Hadis, Islom dini, Alloh taolo, Rasululloh salollohu alayhi vasallam, "Sahihi Buxoriy", nomoz,*

Abstract: *This article deals with the research and achievements of speech culture in the East, including speech culture and communication etiquette. Islamic interpretations of views are highlighted.*

Key words: *Qur'an, Hadith, Islam, Allah, the Messenger of Allah, peace and blessings be upon him, "Sahih Bukhari", prayer,*

Sharq mamlakatlari qadimdan madaniyat va ma'rifat o'chog'i sifatida qardosh xalqlar orasida muhim o'ringa ega. Hattoki, so'z va uning qudrati haqida muqaddas manba, "Qur'on"da, Hadislarda, xalqimiz tomonidan yaratilgan maqol, matal, ertak va dostonlarda juda ko'p qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Nutq madaniyati muomala odobi zamirida juda keng ma'no va mazmun yotadi. Inson barcha mavjudotlardan o'zining go'zal nutqi, muomala madaniyati, aql-u tafakkuri, ongi va yetuk insoniy fazilatlari bilan ajralib turadi. Hayoti davomida doim o'zida insoniylikka xos sifatlarni shakllatirib, haqiqiy shaxs sifatida shakllanishi uchun muhim fazilatlarni shakllantirishga tinimsiz harakat qiladi. Bunday xususiyatlar bizga turli voqealar, yaqin kishilarimiz, muqaddas dinimiz, hadislarimizdagi oyatlar shu kabi bizni tarbiyalovchi omillar ta'sirida shakllanadi.

Hadis - islom dini talimoti bo'yicha Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad(s.a.v.) payg'abarning hayoti va foliyati, shuningdek uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Muhammad(s.a.v.) payg'ambar biror gap aytgan yoki biror ishni qilib ko'rsatgan bo'lsa, yoxud boshqalarning o'zlaricha qilayotgan biron ishini ko'rib, uni man etmagan bo'lsa, shu uch holatning har biri sunnat hisoblanadi. Ana shunday hatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar haqidagi rivoyat hadis deb yuritiladi. Hadislarda islom dini ahkomlari ya'ni, farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, muboh kabilardan tashqari, axloq-odobga doir ko'rsatmalar ham talqin etiladi. Ularda ibodatning tartib-qoidalari va ularni mukammal bajarishga da'vat etish bilan birga insoniy fazilatlar ham keng tashviq qilinadi, insoniylik sha'niga dog' tushiradigan razil sifatlari qoralanadi. Shuning uchun ham islomning ilk davrlaridanoq musulmonlar hadislarga juda katta ahamiyat



berishgan. Eshitgan har bir hadisni xatosiz, asl holicha boshqalarga yetgazishga qat'iy rioya qilingan.

Barcha ulamolar: muhaddislar, faqihlar, usuliylar, mutakallimlar, nahviylar va boshqalar "Sahihi Buxoriy". Alloh taoloning kitobi - Qur'oni karimdan keyingi eng ishonchli va sahih kitob ekanligiga ittifoq qilganlar. Ushbu to'plamda tarbiya, axloq-odob, o'zaro do'stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insof-tavfiqni targ'ib qilish bilan bir qatorda razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg'onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nisbatan nafrat tuyg'ulari ham o'z ifodasini topgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muqaddas kitobimiz Qur'oni karim oyatlarida va Hadisi sharifda bayon etilgan fikrlar insoniyat tafakkuri va faoliyatidan ayri holda emas. Islom manbalarida insonlardagi muomala madaniyati, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar, ularda ezgulikka intilish g'oyasi asosiy sanaladi. Bunga misol sifatida Abu Hurayra (r.a) rivoyat qilgan quyidagi hadis muhim ahamiyat kasb etadi, Bir odam Rasululloh salollohu alayhu vasallamning huzurlariga kelib, "Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqliroqdir?"-deb so'raganida Payg'amarimiz (s.a.v) uch martasida „onang!“, so'ngra "otang!"-deb javob berdilar. Ota-onani haqorat qilish, ularga yomon muomalada bo'lishni "odam qiladigan gunohi azimlardan biri" deb aytadilar. [1: 1]. Islomda ta'kidlanganidek eng avval yaxshi muomala va shirin so'zni ona- otamiz, yaqinlarimizdan ayamalik farz sanaladi. Demak, insoniylikning muhim belgisi bu shirinsuxanlikdir. Zabonning shirinligi insonni muvaffaqiyat sari odimlatadi.

Muqaddas dinimiz bundan buyon ham xalqimizni birlashtirib, millati va tilidan qat'i nazar, ma'naviy poklanish, odamlarni tinchlik, ezgulik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va totuvlikka undaydigan, o'rnini hech narsa bosa olmaydigan vosita bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir. [2: 1]. Chunki Islom dini, uning asosiy kitobi "Qur'oni karim" va undan keyingi asosiy manba hisoblangan Hadislar Allohga, uning payg'ambari Muhammad alayhissalomga e'tiqod qilish bilan birga ota-onaga ahil bo'lish, mehr-oqibat, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafo-sadoqatlilik, poklik, adolat, diyonat kabi insoniy sifatlar haqidagi jihatlari va yaxshi fazilati hamda odob-axloqli bo'lishlik yo'llari bayon etilgan.

"Besh vaqt namoz gunohlarga kafforatdir". Abu Hurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: "Rasululloh sallallohu alayhi vasallam odamlarga: «Birortangiz uyingizning oldidan oqib o'tadig'an daryoda (yokim soyda) har kuni besh mahal yuvinsangiz, badanimda kir qolmish, deb ayturmisiz?"-dedilar. Odamlar: "Sira ham kir qolmag'aydir",-deyishdi. Janob Rasululloh: "Besh vaqt namoz ham shunga o'xshash bo'lib, Alloh taolo ular tufayli gunohlarni kechirgaydir",-deb aytdilar». [3: 1].

Bilamizki, nomoz ham amaldir, u ham, muqaddas so'zlar, juda latif kalomlardan tashkil topgan. Buning o'zi ham so'zning ahamiyati cheksiz ekanligini bildiradi.

"Inson xatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qiladi". [4: 1]. Alloh taolo insonni go'zal suratda yaratib, unga juda ko'plab ne'matlarni ato etdi. Jumladan, maxluqotlardan



faqat inson zotiga nutqni berdi. Til shunday vositaki, bir shirin soʻz bilan qalbi vayron odam koʻnglini obod etish, yoki aksincha, bir yomon soʻz bilan tilka-pora qilib yuborish tabiiy. Inson til orqali ulkan savoblarni qoʻlga kiritishi yoki aksincha, oxiratda nadomat chekishi mumkin. Shunday ekan, yuqoridagi oʻgitlarga amal qilib, oʻtayotgan har bir lahzamizni gʻanimat bilishimiz, bizga berilgan til neʼmatidan unumli foydalanishimiz kerak. Zero, vaqtimizni behuda gap-soʻzlarga sovurish oʻrniga, ilm-fan, kasb-hunar, taʼlim-tarbiya va jamiyatimiz farovonligi yoʻlida sarflasak, ikki dunyo saodatiga erishamiz. Alloh taolo bizlarga ato qilgan barcha neʼmatlaridan oqilona foydalanishimizni nasib aylasin.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, nutq madaniyati dinimizda azal-azaldan odob-axloq meʼyorlariga tayanib ish koʻrganligi va madaniy tarzda gapirish odob-axloq talablariga bogʻlab izohlanganligini koʻrishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 4-kitob. Qomuslar bosh tahririyati, 1997.78-bet.
2. Sh. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. 1-kitob. Toshkent. "Oʻzbekiston".-2019.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomeʼ as-sahih. (1-jild). Qomuslar Bosh tahririyati. Toshkent. 1991. 110-bet.
4. Hamidulla Hikmatullayev, Abdulaziz Mansurov. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. Toshkent. Fan. 1990. 11-bet.
5. Ibragimova, D. (2021). "ҚИСАСИ РАБҒУЗИЙ" АСАРИДА ПРОФЕТОЛОГИК ИЛДИЗЛАРНИ ЎРГАНИШ. Scienceweb academic papers collection.
6. Ибрагимова, Д. И. (2022). Замонавий мактабларда адабиёт фанини ўқитиш муаммолари. Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий кадриятлар, 1(2), 333-335.
7. Ибрагимова, Д. И. (2021). АЛИШЕР НАВОЙНИНГ ТАРИХИ АНБИЁ ВА ҲУКАМО АСАРИДА ПАЙҒАМБАРЛАР ГЕНЕЗИСИ ТАҲЛИЛИ. Conference, 1(2), 63-65.
8. Inomjonovna, I. D. (2023, April). Boshlangʻich sinflarda individual ishlash texnologiyasi va uning samaradorligi. Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2(4), 207-212.